

## O'ZBEKİSTONNING MUSTAQİLLİK YİLLARİDAGİ İQTISODIY O'ZGARİŞHLARI.

*Ergashev Ozodbek Musurmon o'g'li*

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika institute talabasi*

*Email:ergashevozodbek4820@gmail.com*

*Telefon raqami:+998904184820*

*Qudratov Botir Ismoil o'g'li*

*Denov Tadbirkorlik va pedagogika institutining talabasi*

*Email:qudratovb51@gmail.com*

*Telefon raqami:+998971970797*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqqan O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida so'z boradi. Bunda siz mustaqillik yillarida aholining turmush darajasini yaxshilash yo'lida olib borilgan siyosat, ularga yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar bilan tanishishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston xalqaro miqyosda, innovatsion, Islom Abdug'aniyevich Karimov, ma'muriy buyruqbozlik

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi oson bo'lmedi,bir qancha qiyinchilikka duch keldi hamda bundan yetarlicha xulosa chiqaraoldi.Mustaqillikdan unimli foydalandi .Iqtisodiyotni,sanoatni ,infratiuzilmalarni tashqi aloqalarni har tamonlama rivojlantirdi hamda Xalqimiz yashash sharoiti yaxshilandi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqaro miqyosda o'zini tanitish, ayni chog'da xalq-aro huquq me'yordi asosida jahondagi barcha davlatlar bilan teng hamkorlik qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Jahon haritasida O'zbekiston yangi, yosh mustaqil davlat sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi.Iqtisodiyotda tub o'zgarishlar qilish uchun imkoniyat yaratildi. Ya'ni jahon amaliyoti isbotlagan bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun sharoit barpo etildi. Mulkka munosabat tubdan o'zgarib, jamiyatda yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun imkon ochildi.Mustaqillik xalqning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurt tarixi, qadimiy madaniyat tiklana boshladi. Xalqining azaliy urf-odatlari, ma'naviy qadriyatlari unga qaytarib berildi. Dinga munosabat mutlaqo ijobiy tomonga o'zgardi. Shunday qilib, qo'lga kiritilgan Mustaqillik o'zbek xalqi tarixida tamoman yangi davrni boshlab berdi, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllana bordi. Xalq kelajakka ishonch bilan qaray boshladi. O'z yurtining to'la xo'jayini ekanligini, o'z takdirini o'zi belgilash imkoniyatini qo'lga kiritganligini his qila boshladi.[1.560b]Mustaqillik yillarida O'zbekiston turli sohalarda ulkan yutuqlarga erishdi.Ayni paytda, butun dunyoda bo'y ko'rsatayotgan inqirozga qaramay,

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda salmoqli ko'rsatikichlarni namoyish etmoqda. Bu yutuqlarning barchasi — O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning to'g'ri va uzoqni ko'zlab olib borgan siyosati natijasidir. Islom Abdug'aniyevich Karimov iqtisodiy mustaqillikka erishmasdan turib, siyosiy mustaqillikni ta'minlash mumkin emas, degan fikrning qat'iy tarafdori edi. Aynan shuning uchun ham Yurtboshimiz tomonidan mashhur besh tamoyil asosida butun dunyoda taraqqiyotning "o'zbek modeli" deb e'tirof etilgan O'zbekiston iqtisodiyotini tubdan isloh etish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish dasturi ishlab chiqildi. Bu modelning tub negizini "Islohot – islohot uchun emas, avvalo inson uchun" degan strategik yo'nalishni amalga oshirish tashkil etadi. [2;78b] "O'zbekiston" Vatanimizning mustaqilligiga ham 33yil bo'ldi, bu davrda xar xil yo'nalishlarda juda ko'p ulkan ishlar qilindi. Yangi-yangi innovatsion tarmoqlar kirib keldi. Mustaqillik davrida ulkan o'zgarishlar evaziga yurtimiz ekonomikasi ham tiklandi. Bu muvaffaqiyatlarning asl sababchisi esa, biz uchun qadrlı bo'lgan 1-prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovdir. Xurmatli 1-prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov 5 ta tamoyildan iborat bo'lgan taraqqiyotning "o'zbek modeli" ni ishlab chiqdi.

1. Tinchlik va qo'shnilar bilan inoqlik. O'zbekistonda hech qanaqa millatparastlik va dinparaslik yo'qligi, tinchligimiz esa bu bizning eng asosiy yutug'imizdir.
2. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi. 25 yil davomida to'g'ri yurutilgan ekonomik strategiya evaziga, yurtimizda oziq-ovqat ishlab chiqarish turlari va soni oshdi, oziq-ovqat istemol qilish esa 96% ga oshdi. Go'sht mahsulotlari 1.4 barobarga Sut mahsulotlari 1.5 barobarga Sabzavotlar 2.5 barobar Meva-cheva 6.3 barobar Un mahsulotlari esa 2 barobarga oshdi.
3. Milliy armiyamiz yaratildi. Milliy armiyamiz davlat xavfsizligi bo'yicha SNG davlatlari ichida 4-o'rinda, dunyo bo'yicha 54-o'rinda turadi. 65 minglik armiyamiz, armiyamizni kuchaytirish maqsadida yiliga \$2.
4. 4 mldr sarflanadi. Barqaror ekonomik rivojlanish. 11 yil davomida yurtimizda yalpi ichki mahsulot hajmi yiliga o'rtacha 8% oshib kelmoqda. Oxirgi 5 yil davomida 5 000 000 ta yangi ish o'rnlari yaratildi.
5. Ijtimoiy jihatdan ta'minlanish. Uzoq umr ko'rish bo'yicha SNG davlatlari ichida da 1 -o'rin, dunyo bo'yicha 158 davlatlar ichida 44-o'rinda turadi. Fuqarolarni ijtimoiy ta'minlash byudjet hisobidan 60% ga oshirildi.
6. Milliy ta'lif tizimi yaratildi. O'zbekiston birinchi bo'lib 12 yillik majburiy ta'lif sistemasiga o'tdi. 10 00 ta muktab, 1556 ta kolledj, 150 ta akademik litsey qurib ishga tushurildi.
7. Milliy SPORT ta'lifot tizimi ishga tushdi. Shahar va qishloq hududida sport bilan shug'ullanish qariyib 2 barobar oshdi.

8. Transport va yo'l xo'jaligi sohalarini rivojlantirish, mintaqaviy temir yo'l uzellari qo'yilishi, transport infrastrukturasiga juda katta etibor qaratildi va ishlar qilindi.Qamchiq dovonida tonel qurilishi.Avto yo'llarining 183 000 km ga cho'zildi va 7700 km yo'l rekonstruksiya qilindiAngren-Pop temir yo'l qurulishi.Axborot kommunikatsiya tizimi rivojlanishi.UZNET foydalanuvchilari 2007 - yildan hozirgacha 16 barobarga oshdi.

9. Kichik biznesni rivojlantirilishiKichik biznesning YIM ga 56.5% ga oshdi. ish bilan ta'minlanishi 77.9 % ga oshdi.

10. O'zbekiston boshqa davlatlarning ichki ishlariga, iqtisiyodiga aralashmaslikka, boshqa davlatlarning harbiy bazalarini O'zbekiston hududi joylashtirmaslik haqida qat'iy qaror qabul qilindi.[3.44b] Mustaqillikdan so'ng mamlakatimizda islohotlar o'tkazishda bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy tizim asos qilib olindi. Bozor munosabatlariiga o'tishning asosiy shartlaridan biri mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish amalga oshirildi. Bu yo'l bilan davlat monopoliyasi tugatilib, ma'muriy buyruqbozlik tizimi parchalandi va bozor iqtisodiyotiga asos solindi, xususiy mulkka ega bo'lgan tadbirkorlarning keng qatlami shakllantirildi va xorijiy investitsiyalardan foydalaniib, ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdarligini oshirish orqali aholining turmush darajasi yaxshilana boshladiulkni xususiy lashtirish va ko'p ukladli iqtisodni shakllantirish O'zbekistonda o'ziga xos yo'l bilan amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirishdan ko'zlangan maqsad: 1.Davlat monopoliyasini tugatib ma'muriy buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiy kuchli davlat barpo etish; 2.Xususiy mulkdorlar va tadbirkorlarning keng qatlами shakllantirish; 3.Xorijiy investorlarga keng yo'l ochish, ishlab chiqarish samaradorligini va mehnat unumdarligini oshirish, aholining turmush tarzini yaxshilashdan iborat. 1992-1993-yillar xususiy lashtirishning birinchi bosqichida "Kichik xususiy lashtirish" amalga oshirildi. Buning oqibatida asosan mayishiy xizmat va savdo korxonalari, transport va qurilishning kichik korxonalari, davlat sanoat va mahsulot qayta ishlash korxonalari mulk shaklini o'zgartirdi. Bular mulkning ijara, jamoa va aksiyadorlik shakliga aylantirildi. Uy-joylar keng miqyosda xususiy lashtirilib, aholining ayrim qismiga tekin, boshqa qismiga esa arzon narxda xususiy mulk etib berildi. Davlat mulkini xususiy lashtirishning ikkinchi bosqichiga o'tishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1994 yil 21 yanvardagi "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishning choratadbirlari to'g'risida"gi qarori asos qilib olindi. Bu davrda ochiq aksiyadorlik jamiyatlarini yaratish, korxonalar aksiyalarini chiqarish, auksion (kim oshdi) savdosi orqali davlat mulkini shaxslarga sotish, qimmatbaho qog'ozlarni chiqarish va xususiy lashtirishni keng miqyosda olib borish uchun sharoit yaratish ishlari amalga oshirildi. Dastlabki davrda agrar sohada ham islohotlar amalga oshirildi. Natijada

qishloq xo‘jaligida 770 kolxoz va xo‘jaliklar davlat tasarrufidan chiqarildi, jamoa va ijara xo‘jaliklariga aylantirildi. Lekin qishloq hududlarda bu jarayon sekin kechdi va qiyinchiliklarni bartaraf etishga to‘g‘ri keldi. I.A.Karimov ta’kidlaganidek, agrar sohadagi byurokratik boshqaruvi tizimi asoratlari, har xil to‘sqliari qishloqlardagi islohotlarning olib borilishiga xalaqit berardi. Mulkning xususiy lashtirish jarayonining birinchi bosqichidagi eng muhim xulosa mulkdorlar sinfining shakllana boshlagani, xususiy lashtirish mexanizmining ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarga nisbatan kishilar psixologiyasi va munosabatining o‘zgarishi bo‘ldi. Mustaqillik yillari yuz bergen tub o‘zgarishlardan biri mamlakatda ikki yo‘l bilan mulkdorlar sinfi shakllana boshladi. Birinchidan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish, ikkinchidan, pul mablag‘larini omonat kassalari yoki banklariga qo‘yish, qimmatbaho qog‘ozlarga aylantirish yo‘li bilan. Iqtisodiy erkin tadbirkorlar “o‘z boyligini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘libgina qolmay, balki butun mamlakatni boyitishga ham qodir bo‘ladi”-deydi Birinchi Prezident Islom Karimov.[4;67b] Iqtisodiyotning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi – o‘zaro munosabatlarning barcha shakl va turlari birligi bo‘lib, ularning asosiysi mulkchilik tizimidir. Shu bois ham mulk masalalari hal qilishga Prezident Islom Karimov tomonidan mustaqillikka qadar (1989-1991) va mustaqillikning dastlabki yillari muhim ahamiyat berildi. Istiqlol yillarida mulkchilikning tuzilishida tub o‘zgarishlar ro‘y berdi, ko‘pukladli iqtisodiyot amalda shakllanib, uning tarkibida xususiy mulk ustuvor rivojlandi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotida nafaqat hal qiluvchi o‘rin egalladi, ayni vaqtda bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldirish odamlarning daromadlari va farovonligi oshib borishining asosiy manbaiga, aholi bandligi o‘sishining eng muhim omliga aylandi. Mustaqillikka erishilgandan so‘ng aholining huquqiy savodxonligini oshirish borasida ham bir qancha izchil ishlar olib borildi. Jumladan birinchi Prezident Islom Karimov 1997 yil 20 mayda respublika huquq-tartibot idora va tashkilotlarilari rahbarlari, huquqshunos olimlar, ommaviy-axborot vositalari vakillari bilan uchrashuvida “Yuksak huquqiy tafakkur-demokratik jamiyat taqozosi” mavzusida so‘z yuritildi. Bunda 3 muhim masalaga diqqat qaratildi: (uch subyekt: davlat, jamiyat va fuqarolarning o‘zaro munosabati uyg‘unligini ta’minalash): 1. Huquqiy ong, huquqiy tafakkur. Ong ijtimoiy formalardan biri bo‘lib, u turmush tarzi almashinish jarayonidir. Huquqiy ongni shakllantirish uchun aholi turmush darajasini o‘stirish, uni erkinlashtirish va imkoniyatlar yaratish lozimligi aytildi. 2. Huquqiy bilim-huquqiy ongni shakllantirish elementi hisoblanadi. U maktab va oliy o‘quv yurtlarida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘qitish, inson huquqlariga e’tibor berish kabi omillar bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun ham 1999-2000-yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimiga O‘zR Konstitutsiyasini o‘rganish fanlari kiritildi, huquqiy fanlarga juda katta e’tibor qaratila boshlandi. Maktablarda “Siz huquqingizni bilasizmi?” viktorinalari o‘tkazildi va o‘tkazilib kelinmoqda. SHuningdek, huquqqa

doir turli ko‘rik-tanlovlар yoshlar o‘rtasida huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tadbirlardan biri hisoblanadi. 3. Huquqiy madaniyat-bu huquqiy ong, tafakkur va huquqiy bilimlarning uzviy rivojlangan qismi bo‘lib, u jamiyat huquqiy madaniyatining oshganligini bildiradi. Shu boisdan ham ana shu 3 ta tushuncha birlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u huquqiy madaniyatning takomillashuvi, huquqiy davlat ijtimoiy hayotining rivojlanishiga olib keladi. Prezident I.A.Karimov ta’kidlaganidek, «Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmасligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin» Qisqa davr mobaynida mamlakatimizda jahon savdo-iqtisodiy munosabatlarga kirishish, milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, sanoatni rivojlantirish, mamlakatning energetika, oziq-ovqat va transport xavfsizligini ta’minlash kabi murakkab vazifalar yechimiga bosqichma-bosqich muvaffaqiyatli erishdi. Istiqbolni aniq tasavvur qilish va odamlarning beqiyos kuchiga ishonch unga “O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat” degan ilhomlantiruvchi va safarbar etuvchimaqsadli tezisni shakllantirish huquqini berdi. Rahbarning bu pozitsiyasi, tabiiyki, mamlakat aholisining psixologik muhitiga ta’sir ko‘rsatdi, odamlarning yangi dunyoqarashini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi, jamiyat hayotining barcha jabhalarida keng ko‘lamli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga faol turtki bo‘ldi. Mamlakatda inson hayoti va faoliyati, psixologiyasi va ma’naviyatini qamrab oluvchi ochiq siyosiy muhit shakllana boshladi. Bu harakatlar, o‘z navbatida, O‘zbekistonda shakllanayotgan insonparvar jamiyatning ma’naviy qiyofasini, siyosiy qonuniyligini, ijtimoiy va huquqiy barqarorligini belgilab berdi. Eski dogma va qoliplardan butunlay voz kechgan holda, Islom Karimovning kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha keng ko‘lamli Milliy dasturi ishlab chiqildi va amalda yo‘lga qo‘yildi. Darhaqiqat, ta’lim tizimida eng zamonaviy xalqaro standartlarga asoslangan tub islohotlar amalga oshirildi. Bu oxir-oqibat O‘zbekistonda davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Vestminster universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti va Turin politexnika universiteti, Rossiya neft va gaz universiteti, Moskva davlat universiteti, Rossiya iqtisodiyot universiteti, Janubiy Koreya Inha kabi Yevropa va Osiyoning bir qancha yetakchi universitetlarining filiallari ochilib, hozirgacha muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelishmoqda.[5;98b]

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki,O’zbekiston xalqi mustaqillikdan so’ng badaniga shamol tegdi desak adashmagan bo’lamiz .Chunki,xalqimiz mustaqillikdan keyingina yaxshi turmish sharaoitiga ega bo’ldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma’lumotlaridan foydalanilgan.
3. Dollar.uz saytidan.
4. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi.- T.:O‘zbekiston, 2005.
5. Qobilov Sh.R. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik.-T.:O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013.
6. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, 2-jild. –T.: «O‘zbekiston», 1996.

